



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-iyul

154-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi 329-soni qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 17-iyun kungi 315-11-0-Q/25-sonli qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi 329-soni
qarori ijrosi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagagi
“O'zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga
oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi PF-37-son Farmoni ijrosini ta'minlash,
shuningdek,

madaniyat va san'at sohasidagi iqtidorli yoshlarni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash va
rag'batlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi “Ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash va
rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi 329-soni qarori asosida qabul
qilingan viloyat hokimining 2025-yil 17-iyun kungi 315-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini
ta'minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston
Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-may kungi “Ijodkor
yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari
to'g'risida”gi 329-soni qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil
17-iyundagi 315-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Madaniyat va san'at sohasida iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yangilash
va yangi bosqichga olib chiqishning ustuvor yo'naliishlari etib quyidagilar:

ijodkor yoshlarni aniqlash, iste'dodlarini yuzaga chiqarish, shuningdek, qiziqishlarini
yanada oshirish orqali madaniyat va san'at sohasiga jalb qilish;

ijodkor yoshlarni tanlash va saralash, ushbu jarayonga raqamli texnologiyalar hamda zamonaviy, innovatsion va integratsiya usullarini joriy etish;

“ustoz-shogird” an’ analariga muvofiq professional ijodkorlarni shakllantirish va yosh kadrlar tajribasini oshirish;

ijodkor yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish hamda ularga munosib ijodiy muhit yaratish;

iste’dodli yoshlarning ijodini keng ommaga, shu jumladan, xalqaro miqyosda tanitish va targ‘ib qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi;

2025-2030 yillarda ijodkor yoshlarni tanlash, saralash va ularni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

2030-yilgacha yoshlar o‘rtasida madaniyat va san’at sohasiga oid o‘tkaziladigan tanlov va festivallarning natijadorligini oshirishga erishish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Farg‘ona viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

Farg‘ona viloyatida 2025/2030-yillarda ijodkor yoshlarni tanlash, saralash va ularni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

2030-yilgacha yoshlar o‘rtasida madaniyat va san’at sohasiga oid o‘tkaziladigan tanlov va festivallarning natijadorligini oshirishga erishish bo‘yicha Farg‘ona viloyatida amalga oshiriladigan ishlar maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. Farg‘ona tumani Madaniyat bo‘limi (M.Abdullayev), manfaatdor bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda 2026-yildan boshlab Madaniyat boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadigan yillik kalendar-reja asosida yoshlar uchun madaniyat va san’at sohasida tanlov va festivallarni quyidagilar asosida tashkil etadi.

Bunda:

har yili 20-noyabrga qadar tumandagi bo‘lim va tashkilotlar keyingi yilda o‘tkaziladigan tanlov va festivallarning ro‘yxatini tasdiqlash uchun tuman Madaniyat bo‘limiga taqdim etadi;

har yili 1-dekabrga qadar bo‘lim va tashkilotlar tomonidan Madaniyat bo‘limiga taqdim etilgan tanlov va festivallarning ro‘yxatini umumlashtirgan holda keyingi yil uchun tanlov va festivallarning kalendar rejasini tasdiqlash uchun tuman hokimligiga kiritadi;

har yili 10-dekabrga qadar tasdiqlangan kalendar-reja Madaniyat bo‘limi, shuningdek, manfaatdor bo‘lim va tashkilotlarlarining rasmiy veb-saytlarida e’lon qilinadi.

5. Tuman Madaniyat bo‘limi (M.Abdullayev):

bir oy muddatda moliyalashtirish hajmi va manbalarini nazarda tutgan holda chora-tadbirlar dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha hududiy rejalarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

har oyning so‘nggi chorshanba kuni hududdagi ijodkor yoshlarning mavjud muammolari va takliflarini o‘rganish, shuningdek, ularga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida qabullar tashkil etsin;

maqsadli ko‘rsatkichlarda belgilangan natijalarga o‘z vaqtida erishish bo‘yicha zaruriy choralarni ko‘rsin.

6. Tuman hokimligi Axborot-xizmati (A.Ergashev), “Vodil yog‘dusi” gazetasi (S.Dadaxo‘jayev) bilan birgalikda o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar va ularning yantuqlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rnbosari I.Toshpo‘latov zimmasiga yuklansin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T